




O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH – HUQUQIY ISLOHOTLARNING BOSH MAQSADI

Abduxafizov Sardor Nematjonovich

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10815949>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 12-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 14-mart 2024 yil

KEY WORDS

huquqiy tizim, milliy tizim, huquq shakli, xalqaro huquq manbasi, implementatsiya, xalqaro tashkilotlar, islohotlar, inson huquqi

ABSTRACT

Ushbu maqolada Inson huquqlarini ta'minlash yangi tashkil topgan har qanday mustaqil davlatning ustuvor maqsadi hamda siyosatining asosiy qadriyatlaridan biriga aylanishi isbot talab etmaydigan holatlar, hozirgi globallashuv jarayonining ijobiy xususiyatlaridan biri jahon siyosiy xaritasida demokratik prinsiplarga muvofiq ravishda shakllanayotgan suveren davlatlar tizimini kengaytirishga qaratilganligi shuningdek, inson huquqlari himoyasining xalqaro va milliy mexanizmlari, ular tashkil etilishining tarixiy asoslari, huquqiy maqomi, amaliy ahamiyati, xalqaro huquqiy normalarning milliy huquq tizimiga implementatsiya qilinishi va hamkorlik samaradorligi va inson huquqlarini ta'minlash – huquqiy islohotlarning bosh maqsadi ekanligi va inson huquqlarining milliy va xalqaro qonunchilikda qay darajada ta'minlanganligi yoritilgan.

Huquqiy islohotlarning muhim jihatlaridan biri – bu inson huquqlarini ta'minlash sohasida xalqaro huquqiy hujjlarga asoslangan milliy qonunchilikni takomillashtirishdir. Huquqiy davlatchilik yo'lida O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati suverenitetini mustahkamlash va huquq ustunligini tasdiqlanishi huquqiy davlatchilikning chambarchas o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Inson huquqlari - har bir insonning millati, yashash joyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat'i nazar, ajralmas huquqlaridir. Barcha odamlar har qanday turdagi kamsitishlarni istisno qilgan holda, inson huquqlaridan bir xilda foydalanish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqlar o'zaro bog'liq va ajralmasdir. Insonning umumbashariy huquqlari ko'pincha shartnomalar, xalqaro odat huquqi, huquqning umumiy prinsiplari va xalqaro huquqning boshqa manbalarida qonun ko'rinishida mustahkamlangan va kafolatlangan. Inson huquqlari xalqaro huquqiy davlatlarga inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rivojlantirish hamda himoya qilish bo'yicha majburiyatlarni yuklaydi.

Inson huquqlari ajralmasdir. Shaxs ulardan mahrum etilishi mumkin emas, faqat kamdan-kam hollarda va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bundan mustasno bo'la oladi. Barcha inson

huquqlari bir butun bo'lib, ular o'zaro bog'liq: masalan, yashash huquqi, qonun oldida tenglik huquqi, so'z erkinligi huquqi, fuqarolik va siyosiy huquqlar; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar va mehnat qilish huquqi, jamoat xavfsizligi, ta'lim, rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi kabi jamoaviy huquqlardir. Bir huquqni hurmat qilish, boshqa huquqlarni hurmat qilishga olib keladi. Xuddi shu tarzda, biron-bir huquqqa rioya qilmaslik, boshqa huquqlarning amalga oshirilishiga salbiy ta'sir qiladi.

Huquq va majburiyatlar

Inson huquqlarini tan olish nafaqat ularni amalga oshirish huquqini, balki muayyan majburiyatlarni bajarishni ham anglatadi. Xalqaro huquqqa muvofiq, davlatlar inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va ularni ro'yobga chiqarish majburiyatlarini o'z zimmlariga oladilar. Inson huquqlarini hurmat qilish, davlatning inson huquqlarini amalga oshirishga aralashmaslik va ularni cheklashdan tiyilishini anglatadi. Inson huquqlarini himoya qilish majburiyati davlatdan huquqbuzarliklarning oldini olishni talab qiladi. Inson huquqlarini amalga oshirilishi davlatga insonning asosiy huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirilishini kafolatlash majburiyatini yuklaydi. Individual darajada har bir inson boshqalarning huquqlarini hurmat qilishi kerak. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o'z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantig'iga ega. Adabiyotlarda „inson huquqlarining uch avlod bosqichi“ haqida ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat: Inson huquqlarining „birinchi avlodi“ - „fuqarolik va siyosiy huquqlar“ hisoblanadi. Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi“ - bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro'y berdi. Nihoyat, inson huquqlarining „uchinchi avlodi“-„hamjihatlik huquqlari“ deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga egadir. Umum e'tirof etilgan qoidaga ko'ra, bu huquqlar: tinchlikka bo'lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo'lgan huquq, insonniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalardir.

Prinsiplar:

Universallik va ajralmaslik

Inson huquqlarining universallik prinsipi – xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi asosidir. Bu prinsip 1948-yilda „Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi“ qabul qilinishi bilan birinchi marotaba muhim ahamiyat kasb etgan va doimiy ravishda inson huquqlari sohasiga oid ko'plab xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va rezolyutsiyalarda namoyon bo'lgan. Masalan, 1993-yilda Venada bo'lib o'tgan inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilish, davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimiga bog'liq emasligi ta'kidlandi.

Tenglik va kamsitmaslik

Kamsitmaslik prinsipi – inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning keng qamrovli prinsipidir. Ushbu prinsip inson huquqlari to'g'risidagi barcha asosiy shartnomalarda mavjud va inson huquqlari bo'yicha ba'zi xalqaro konvensiyalarning markaziy mavzusidir. Kamsitmaslik prinsipi har bir insonga qo'llaniladi va insonning barcha huquqlari va erkinliklariga, jinsi, irqi, tanasining rangi yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, biron-bir kamsitishlarsiz qo'llaniladi. Kamsitmaslik prinsipi „Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi“ ning 1-moddasida mustahkamlangan tenglik prinsipi bilan to'ldirilgan: „Barcha odamlar erkin tug'iladi va qadr-qimmatini hamda huquqlari bo'yicha tengdir“.¹

¹ <https://xs.uz/uz/post/qonunni-bilmaslik-masuliyatdan-soqit-qilmajdi>

Har bir davlat kamida inson huquqlari bo'yicha bitta asosiy shartnomani ratifikatsiya qildi, 80% davlatlar to'rt va undan ortiq shartnomalarni ratifikatsiya qildi. Bu esa ushbu sohada davlatlar o'rtasidagi umumiy kelishuvni aks ettiradi, ularga huquqiy majburiyatlarni yuklaydi va universallik prinsipini tasdiqlaydi.

Insonning o'z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko'tarilgan quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'zining moddiy ifodasini topgan:

- Erkinlikning buyuk xaritiyasi (1215-yil);
- Huquq to'g'risidagi petitsiya (1628-yil);
- „Habeas Corpus Act“ (1679-yil);
- Huquqlar to'g'risidagi bill (1689-yil);
- Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt (1966-yil);
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning fakultativ protokoli (1966-yil);
- Yevropa Kengashi Inson huquqi va erkinliklarining himoyasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1950-yil);
- Yevropa ijtimoiy xartiyasi(1960-yil);
- Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasi(1981-yil);
- Inson huquqlari Umumislom Deklaratsiyasi(1981-yil);
- Islomda inson huquqlari Qohira deklaratsiyasi(1990-yil);
- Inson huquqlari Arab xartiyasi(1994-yil);
- Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya(1989-yil);
- Qiynoq hamda muomala va jazolshning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-yil);
- Irqiy kamsitishning barcha turlarini yo'q qilish to'g'risidagi Xalqaro konvensiya(1965-yil);
- Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro konvensiya(1990-yil);
- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya(2006-yil);

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasdan balki, hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan. Inson huquqlari — insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushunchadir. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Prezident Shavkat

Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi: "Biz fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, O'zbekistonda so'z erkinligini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni qat'iy maqsad qilganmiz. Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lgan **qiynoqlarning har qanday ko'inishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'ymaymiz**".²

Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoqlarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.³ Eng muhim huquqlardan biri - bu o'zining tabiiy boyliklari va resurslaridan erkin foydalanish huquqini ham qamrab olgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidir. Bu haqida "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" 1976-yil 3-yanvarda kuchga kirgan.

Pakt quyidagi huquqlarni himoya qilish va amalga oshirishga ko'maklashishni ko'zda tutadi:

- erkaklar va ayollarga teng huquqlar;
- adolatli va qulay sharoitlarda mehnat qilish huquqi;
- ijtimoiy himoya, hayot kechirish uchun yetarli sharoitlar va mumkin qadar yuqori darajadagi jismoniy va aqliy sog'lomlik sharoitlariga bo'lgan huquq;
- ta'lim olish va madaniy erkinlik va ilmiy taraqqiyot ne'matlaridan foydalanish huquqi;
- kasaba uyushmalari tashkil qilish va ularda ishtirok etish huquqi;
- oilani qo'riqlash va oilaga ko'maklashish huquqi;
- madaniy hayotda qatnashish va ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish huquqi;
- yetarli hayot darajasiga bo'lgan huquq;
- ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan huquq;

Pakt ko'zda tutilgan huquqlarni hech qanday kamsitishlarsiz amalga oshirilishini nazarda tutadi. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmining mavjudligi davlatlar tomonidan inson huquqlariga rioya qilish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni yaratishga qaratilgandir.⁴

Inson huquqlari ta'minotining milliy mexanizmi quyidagi turlardan iborat:

- iqtisodiy kafolatlar;

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi (president.uz)

³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

⁴ Salbin D.A. Prava Cheloveka: Uchebnoe posobie. - Orenburg: OGU, 2004. - s. 152-154.

- ijtimoiy kafolatlar;
- mafkuraviy kafolatlar;
- siyosiy kafolatlar;
- huquqiy kafolatlar;
- moddiy kafolatlar.

Huquqiy kafolatlar — fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalga oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir. Ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Kafolatlar— fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalgam oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir".

2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyasida shaxsiy huquq va erkinliklar quyidagi tartibda belgilangan:

- yashash huquqi; (25-modda)
- shaxsiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; (26-modda)
- shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi; (27-modda)
- shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy hayotiga aralashishdan, o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqiga ega; (31-modda)
- yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilmaslik huquqi; (31-modda)
- turar joy daxlsizligi huquqi; (31-modda)
- o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqi; (33-modda)
- muloqot, tarbiya, ta'lim va ijod qilishda o'z ona tilidan foydalanish, tilni erkin tanlash huquqi; (40, 42-moddalar)
- erkin ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, kelish joyini va yashash joyini tanlash huquqi; (32-modda)
- vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi; (35-modda)
- fikrlash va so'z erkinligi huquqi; (33-modda)

Shaxsiy huquq va erkinliklar tartibi konstitutsiyada yashash huquqi bilan boshlanadi. Bu asosiy, insonning tabiiy huquqi, uning xavfsizligi kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, davlat tomonidan inson hayoti uchun ijobiy muhitni yaratish va shaxs sha'nini himoyalash majburiyatini ko'rsatadi. Konstitutsiyaga bunday tarbiyaviy-ahloqiy omillarning kiritilishi amaliy ma'noga ega, ya'ni shaxs g'oyasini jamiyatning eng yuqori qadriyati sifatida e'tirof etadi. O'lim jazosini bekor qilinishi, inson huquqlarining xalqaro standartlari, davlat qonunchiligida va amaliyotida qo'llanilayotganligining yaqqol tasdig'idir. O'zbekiston Respublikasi 1-prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday deb ta'kidlagan: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga mo'nelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi".⁵

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha milliy davlat tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

⁵ I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti – 1997. 80-bet.

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman); (ombudsman o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil);

2) Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Biznes ombudsman;

1996-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi. Markazning asosiy maqsadi — huquq va erkinliklarni himoya qilish ko'p tarmoqli tizimini kompleks tartibida birinchi darajali masalalarni hal etish, inson huquqlari sohasida "Milliy dastur" ishlab chiqish va tadbiq etish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoring instituti qonunchilik ustidan monitoring olib boruvchi, qabul qilinishi kerak bo'lgan qonunlarni ekspertizadan o'tkazuvchi ilmiy hamda tadqiqot olib boradigan tizim hisoblanib davlat rahbarining qonunchilik tashabbusi huquqining amalga oshirishiga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo'lida ixtisoslashgan organ sifatida harakat qiladi.

Boshqarmaning asosiy vazifalari :

-inson huquqlari va unga amal qilish sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish;

-inson huquqlari asosidagi mavjud bo'lgan qonunchilikni mukammallashtirish;

-konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab qo'yilgan inson huquqlari bo'yicha qonunlarga amal qilish;

Ko'p millatli mamlakat hisoblangan O'zbekistonda 140 dan ortiq milliy madaniy markazlar o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi 10-sonli qarori asosida Respublika Baynalminal madaniy markazi tashkil etildi. Markaz barcha madaniy markazlarga faoliyatida amaliy va uslub jihatidan o'z yordamini berish bilan birgalikda mamlakatda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarning vakillarining ehtiyojlarini qondirishda o'z ko'magini ko'rsatadi.

Inson huquqlari kafolatlari bo'yicha xalqaro mexanizmlar

Bir qator mamlaklar o'zlarining rasmiy bayonotlarida BMT ustaviga asosan muayyan inson huquqlariga irqiy, jinsiy, til va diniy kamsitishsiz rioya qilinishini ta'minlashda davlat yurisdiksiyasini rad qildilar. Boshqa guruh davlatlari esa BMT ustavining yuridik majburiyligini tan olishgan holda davlat suvereniteti tushunchasini muvofiqlashtirishib, inson huquqlari sohasi butunlay davlatning ichki vakolati deb hisoblashlarini bildirishdi. Inson huquqlari sohasida xalqaro huquq rolining oshishiga asosiy sabablardan biri Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar va mazkur sohada boshqa xalqaro konvensiyalarning qabul qilinishidir. Tadqiqotlardan birida ta'kidlab o'tilganidek, "1948-yildan so'ng qabul qilingan 90 dan ortiq milliy konstitutsiyalar o'zida deklaratsiya qoidalarini aks ettiradi va mazkur qoidalar uning ta'siri ostida kiritilgan".

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-BMT Bosh Assambleyasi;

-Xavfsizlik Kengashi;

- Bosh Assambleyaning gumanitar va ijtimoiy masalalar bilan shug'illanuvchi uchinchi qo'mitasi;
- Iqtisodiy va ijtimoiy kengash;
- BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashi;
- BMT ning konvensiyaviy organlari;
- Maxsus protseduralar;
- BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari;

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida quyidagi umume'tirof etilgan inson huquqlarining to'liq ro'yxati keltirib o'tilgan:

Shaxsiy huquq va erkinliklar:

- yashashga bo'lgan huquq, erkinlik va shaxsiy daxslizlik huquqi(3-modda);
 - qullikning ta'qiqlanish huquqi(4-modda);
 - qiynoqlarning ta'qiqlanishi, inson qadr-qimmatini kamsituvchi yoki noinsoniy muomalalar va jazolashlarning ta'qiqlanish huquqi(5-modda);
 - har bir insonning huquqiy subyekt bo'la olishining tan olinish huquqi(6-modda);
 - asosiy huquqlarini buzilishi sabab bo'lgan harakatlarga qarshi sud himoyasiga bo'lgan huquqi(7-modda);
 - huquqlarni sud tomonidan samarali tiklanishiga bo'lgan huquqi(8-modda);
 - o'zboshimchalik bilan qamoqqa olish, ushlab turish yoki surgun qilishdan himoya qilishga bo'lgan kafolat huquqi (9-modda);
 - mustaqil va betaraf sudga bo'lgan huquqi(10-modda);
 - aybsizlik prezumpsiyasi, qonunning orqaga qaytish kuchining yo'qligi(11-modda)
- Insonning uni o'rab turgan guruhi va tashqi dunyo bilan bo'gan munosabatlari doirasidagi huquqlari:
- shaxsiy hayotga bo'lgan huquqi(12-modda);
 - erkin ko'chib yurishga va yashash joyini erkin tanlashga bo'lgan huquqi(13-modda);
 - boshpanaga bo'lgan huquqi(14-modda);
 - fuqarolikka bo'lgan huquqi(15-modda);
 - nikoh munosabatlarida erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishiga bo'lgan huquqi(16-modda);
 - mulkka individual va o'zaro egalik qilish huquqi(17-modda). ⁶

Xulosa

Insonning sha'ni, qadr-qimmati, uning erkinligi insonni o'zi kabi davlat uchun ahamiyatlidir. Har qanday qonun va qarorlar fuqarolar manfaati ularning ertasi va kelajagini belgilaydi. Hozirgi yuksalayotgan va tobora ravnaq topayotgan davlatimizda inson qadri uning erkinligi va huquqiga bo'lgan etibor nafaqat bizning ko'zimizda balki jahon xalqlari oldida ham bamisoli oyna kabi qilayotgan ishlarimiz eng buyuk maqsadlarimiz sari bosayotgan qadamlarimizda

⁶ Jayawic Kagata. N.Hong Kong and the internatihnal prhtectihn hf human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992.P.160.

yaqqol namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarni haq huquqlarini, sha'ni va qadr-qimmatlarini ulug'lash uni himoya qilish bugungi kun maqsadi va haqiqatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muratovich M. R., Rajaboevich I. A. AS A CONTINUOUS PROCESS IN FORMING AND DEVELOPING THE PROFESSIONAL CONSCIOUSNESS OF MILITARY SERVANTS //PEDAGOGS journal. – 2023. – T. 36. – №. 1. – С. 32-34.
2. Muratovich M. R. Rajaboevich IA HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 36. – №. 1. – С. 32-34.
3. Махмудов Р. М., Хайдаров И. О. АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИНГ ШАХСГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 30-33.
4. Махмудов Р. М. ҚУРОЛЛИ КУЧЛАР ТИЗИМИДА МУРАББИЙ-ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ АЁЛЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДАГИ МЕТОДИК ИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ҲОСЛИГИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 119-122.
5. МАХМУДОВ Р. М., ЎҒЛИ Э. А. А. ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ БЎЛИБ ШАКЛЛАНИШИГА КАСБИЙ БУЗИЛИШНИНГ САЛБИЙ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 13. – №. 1. – С. 18-24.
6. Махмудов Р. М., Ибрахимов А. Р. ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ ВА ОФИЦЕРЛАРНИ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 143-146.
7. Muratovich M. R. et al. PEDAGOGS jurnali.-2022 //Т. – Т. 10. – №. 1. – С. 216-225.
8. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O'zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 895-899.
9. Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.
10. Narkulova I. R. Verbs of perception in Russian and the ways of their teaching to cadets of higher military educational institutions //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 8.
11. кизи Наркулова И. Р. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛНГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 185-193.
12. кизи Наркулова И. Р. и др. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.
13. Наркулова И. Р. Развитие проектной компетентности курсантов высших военных образовательных учреждений //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 7.
14. Наркулова И. Р. К. ОБУЧАЮЩАЯ ПРОГРАММА «РУССКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ ВОЕННЫХ ЮРИСТОВ» КАК ОДИН ИЗ КОМПОНЕНТОВ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ

КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 225-233.

15. Abdurashidovich M. K., Kizi Y. I. R. Developing self-study competence of pedagogies in English languages by computer technologies //Наука и образование сегодня. – 2019. – №. 11 (46). – С. 45-48.

16. Ёкубова И. Р. Роль синтаксической сочетаемости глаголов восприятия при изучении русского языка в высших военных учебных учреждениях //International scientific review. – 2019. – №. LXIV. – С. 77-81.

17. Ёкубова И. Р. Способы выражения объекта в высказываниях с глаголами восприятия в современном русском языке //LBC. – 2019. – Т. 72. – С. 307.

18. НАРКУЛОВА И. THE USE OF COMPUTER LINGUODIDACTICS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //Social sciences. – Т. 8. – С. 7-9.

19. кизи Наркулова И. Р. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ВАРЬИРОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ СЛОВАРЯ СИ ОЖЕГОВА) //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 7-9.

20. Астанов Ш. Ш. РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СТРАН СНГ //ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР. – С. 136.

INNOVATIVE
ACADEMY